

## KLISHE TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIK HAMDA ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI O'RNI

*Andijon davlat chet tillari instituti  
Ingliz tili filologiyasi, o'qitish metodikasi va  
tarjimashunoslik fakulteti: Filologiya va tillarni  
o'qitish: arab tili yonalishi talabasi:  
Abdulboqijonova Muhlisaxonning ilmiy  
maqolasi.*

*Ilmiy maslahatchi: Kabulova U.S.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada klishe tushunchasining mazmuni, til tizimidagi o'rni, uning jamiyatdagi muloqot vazifalari hamda adabiy jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning boshqa nutq birliklaridan farqi hamda semantik va pragmatik xususiyatlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** *klishe, nutq qolipi, tilshunoslik, pragmatika, uslub, ma'no, adabiy nutq.*

**Аннотация:** В статье анализируется содержание понятия «клише», его роль в системе языка, функции в социальной коммуникации и значение в литературном процессе. Рассматриваются их отличия от других речевых единиц, семантические и прагматические свойства, а также особенности использования в различных стилях.

**Ключевые слова:** *слова клише, речевая модель, лингвистика, прагматика, стиль, значение, литературная речь.*

**Annotation:** This article analyzes the content of the concept of cliché, its role in the language system, its functions in social communication, and its importance in the literary process. It also highlights their differences from other speech units, their semantic and pragmatic properties, and their use in various styles.

**Keywords:** *cliché, speech pattern, linguistics, pragmatics, style, meaning, literary speech.*

Til – insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisasi, tafakkurning shakllanish vositasidir. Tilning rivojlanish jarayonidagi uning uslublari va ko‘p marotaba takrorlanadigan iboralari shakllanib boradi. Ushbu takrorlanuvchi iboralarning bir qismi klishe (fransuzcha "cliche") deb yuritiladi. Klishe – ko‘p marotaba takrorlanishi natijasida o‘ziga xos qolipga aylangan birliklardir. Klishelar o‘z tabiatiga ko‘ra juda turli-tuman bo‘lishi mumkin. Ba’zi klishelar kundalik hayotda qo‘llansa, ayrimlari rasmiy uslubda, yana boshqalari adabiy nutqda yoki ilmiy uslubda mustahkam o‘rin egallagan. Har qanday klishe o‘zining doimiy strukturasi, tayyor mazmuni bilan boshqa birliklardan farq qiladi. Badiiy adabiyotda, masalan, muallif klishe yordamida personajning ijtimoiy kelib chiqishi, dunyoqarashi yoki nutq madaniyatini ko‘rsatishi mumkin. Rasmiy uslubda esa klishelar hujjatlar mazmunini izchil, standart va bir xilda yozishga xizmat qiladi. U nutqda doimiy ravishda uchrab turadigan o‘zgarmas qolipdagi tayyor ifoda shaklini anglatadi<sup>1</sup>.

Klishelar nutq jarayonini soddalashtirish, muloqotchilar orasida tezroq tushunishni ta'minlash, ma'lum ma'lumot va mazmunni qisqa va aniq yetkazish kabi vazifalarni bajaradi. Klishelarning asosiy xususiyati takroriylik va tanishlilikdir. Klishelardan tashqari idiomlar, maqollar, matallar, iboralar ham mavjud. Lekin, klishelar hamma nutq birliklariga nisbatan standart shaklga ega bo'ladi. Har qanday klishe qanday turga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, gapning ma'nosini buzmasdan saqlaydi. Ularning tarkibiy qismlarini o‘zgartirish esa mazmunning buzilishiga sabab bo‘ladi. Ayrim klishelar faqat predmetlarni ifodalasa, boshqalari butun vaziyatni tasvirlaydi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Пропп В.Й. Морфология сказки. – Москва, 1969.

<sup>2</sup> Ельмслев Л. Прологомены к теории языка. – сб. Новое в лингвистике. И.М., 1960.

Adabiyotda klishearning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ba'zan mualliflar klishe yordamida personaj nutqini soddalashtiradi yoki uni jamiyatdagi ma'lum bir qatlamiga mansub ekanligini ko'rsatadi. Yana bir tomondan, ba'zi yozuvchilar klishe larni jamiyatda hukm suruvchi fikrlar yoki nutq me'yorlarini tanqid qilish uchun ham ishlatadilar. Biroq klishe ning ortiqcha ko'payishi ba'zan nutqning obrazlilikini susaytiradi, fikrning boy ifodalanishiga to'sqinlik qiladi<sup>3</sup>.

Hozirgi kunda televideniya, radio, internet saytlar, bloglar va reklama matnlari yangi tayyor iboralar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda<sup>4</sup>. Bu iboralar tez ommalashib, nutqda klishe sifatida ishlatiladi. Masalan, "trendga chiqmoq", "virusday tarqaldi" kabi iboralar ko'p hollarda tayyor qolip sifatida ishlatiladi. Instagram, TikTok va Telegram kabi platformalarda foydalanuvchilar qisqa va aniq gaplarni ishlatishga majbur. Chunki qo'l bilan uzun matnni yozish ba'zi insonlarga biroz noqulay va klishe lar tig'iz vaqtlarda juda qo'l keladi. Shu sababli memlar, hashtaglar va qisqa iboralar klishe sifatida shakllanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Пропп В.Й. Морфология сказки. – Москва, 1969.
2. Ельмслев Л. Прологомены к теории языка. – сб. Новое в лингвистике. И.М., 1960.
3. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л., 1940.
4. Виноградов В.В. Русский язык. – М., 1947.

---

<sup>3</sup> Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л., 1940.

<sup>4</sup> Виноградов В.В. Русский язык. – М., 1947.